

O'zbekiston va Turkiya Prezidentlari ikki tomonlama va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalarini muhokama qildilar

Image not found or type unknown



**6 yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va
Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdoganning telefon orqali
muloqoti bo'lib o'tdi.**

Suhbat davomida ikki mamlakat rahbarlari O'zbekiston bilan Turkiya o'rtaсидаги strategik sheriklik munosabatlarining hozirgi holati va istiqbollarini, hamkorlikni yanada faollashtirish masalalarini muhokama qildilar. Shuningdek, Markaziy Osiyo mintaqasidagi vaziyat, xususan, Qozog'istonda vujudga kelayotgan holat yuzasidan fikr [almashdilar](#).

Prezidentlar Qozog'istonda tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan barcha choralarni ko'rish zarurligi to'g'risida umumiyl fikr bildirdilar.

Shu bilan birga, davlat rahbarlari vujudga kelgan holatni tinch yo'l bilan hal qilishga chaqirib, zo'ravonlik va vaziyat keskinlashuviga yo'l qo'ymaslik muhimligini ta'kidlab o'tdilar.